



O'ZBEK MILLIY LIBOSLARI VA ATLAS TARIXI.

Guliston davlat pedagogika institute Dotsenti Tarix fanlar bo'yicha falsafa

doktori (PHD)

Mirzaliyev U

Tarix yo'nalishi 33/24 guruh talabasi

Noryigitova S.

Annotatsiya : *Ushbu maqolada o'zbek milliy tarixi haqida hikoya qilinadi.*

Kalit so'zlari: *Libos, urf-odat, atlas, milliylik hamda marosimlar.*

O'zbek milliy kiyimi – O'zbek xalqining milliy o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi qadimgi davrlarda yaratilgan va hozirgi kunlarda foydalaniladigan, madaniyati va tarixi bilan uzviy bog'liq bo'lgan kiyimlar. Har bir mintaqa uchun jjo'ziga xos farq va xususiyatlar mavjud. Shuningdek milliy kiyimlar turli marosim va bayramlarda alohida ahamiyat kasb etadi. Kelin-kuyov liboslari, sunnat to'yi liboslari va Navro'z kabi bayramlarga xos kiyimlar o'ziga xos naqsh va bezaklar bilan bezatilgan.

Bugungi kunda O'zbek milliy liboslari zamonaviy modada ham o'z ifodasini topmoqda. Bu matolardan eng mashhurlari atlas va adrasdir.[1:87] Atlas matosining kelib chiqishi juda qadimiy bo'lib, u asosan ipak yoki shoyi matolar sirasiga kiradi. Ushbu mato o'zining silliq va yaltiragan yuzasi bilan ajralib turadi. Atlas matosining kelib chiqishi haqida esa turli xil malumotlar mavjud.

Sharqdan boshlangan tarixi – Atlas matosi dastlab Xitoyda ipak to'qimachiligining rivojlanishi bilan paydo bo'lgan. Xitoy ipakchilikning vatani bo'lib u yerdan atlas matosi boshqa davlatlarga tarqalgan.

O'rta asrlarda tarqalishi – Buyuk Ipak yo'li orqali atlas matosi Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq va Yevropaga yetib kelgan. Ayniqsa, Buxoro, Samarqand va





Marg'ilon kabi shaharlar atlas matosining mashhur markazlaridan biriga aylangan. O'zbekistonda atlas – O'zbek xalqi orasida atlas matosi juda qadrlanadi.[1:3,4] An'anaviy o'zbek atlas matosi tabiiy ipakdan to'qilib, yorqin ranglari va naqshlari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, Marg'ilon atlaslari dunyoga mashhur bo'lib u milliy liboslar – ko'ylaklar, kamzul, do'ppi va boshqalarda keng qo'llaniladi. Bugungi kunda atlas matosi zamonaviy modada ham keng qo'llanilib, nafaqat milliy liboslar, balki zamonaviy ko'ylaklar, kostyumlar va pardalarda ham ishlatiladi. Agar uning nomlanishi va kelib chiqishi haqida aytsak "Atlas" so'zi arab tilidan olingan bo'lib, "tekis, silliq" degan ma'noni anglatadi. Bu nom matoning silliq va yaltiroq yuzasiga ishora qiladi. O'zbekistonda atlas to'qish san'ati asosan Marg'ilon shahrida rivojlangan. XX asr boshlarida bu yerda ko'plab atlas to'quvchi kosiblar faoliyat yuritgan. 2017 yilda o'zbek ipak matolarini to'qish texnologiyasi YUNESKOning nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan. Hozirgi kunda kiyinish madaniyati-ma'naviyatimizning aks ettiruvchi omillardan biri hisoblanib, yoshlarning, ayniqsa qizlarning kiyinish madaniyati ko'pchilik e'tiborida. Shunday ekan, ularning qalbida milliy urf-odat, a'nanalariga mehr uyg'otish, qizlarni "zamonaviy" deb atalmish ochiq-sochiq kiyinishdan asrash, ya'ni kiyinish odobiga rioya qilishga o'rgatish, ularning estetik dinini o'stirish dolzarb mavzulardan hisoblanadi. Milliy liboslarimizni qadrlash va targ'ib qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning to'ng'ich qizi Saida Mirziyoyeva o'zbek va qoraqalpoq milliy libosi va ulaning tarixiga oid an'anaviy milliy etno-liboslarda tushgan foyolavhalarini namoyish etdi va o'z fikrini bildirdi.[2:1jild]

Milliy liboslarimiz ming asrlik tarixiga va o'tmishi, qadimiy urf-odat va an'analari, didi, estetik qarashlari shuningdek o'ziga xos xususiyatlari mujassam. Milliy liboslarimizda yoshlarga xos ibo va hayo aks etgan. Ayniqsa, ayollarimizning atlaslari va adraslari masalasida biz hech ikkilanmasdan o'z milliylik xususiyatlarimizning targ'ib etishimiz mumkin. Buxora, Samarqand, Qo'qon, Marg'ilon, Namangan va boshqa shaharlarda an'anaviy o'zbek ipak



(kanovuz, shoyi, xonatlas), nimshoyi (beqasam, banoras, adras) gazlamalaridan tikilgan turli xil kiyimlar boy-badavlat kishilar orasida rasm bo'lgan. XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyoga Rossiyadan ip gazlama va boshqa matolarning keltirilishi sababli XIX asr oxiri va XX asr boshida mahalliy aholi orasida asosan fabrikada tayyorlangan ip-gazlamalar: chit, bo'z, kimxob, ipak, atlas, duxoba, rang-barang movutlarni sotib ola boshlaganlar.[1:2,3] Hozirgi kunda ham har bir faoliyat turidagi shaxslar, masalan talabalar yigit-qizlar ham yoki o'qtuvchilar hato shifokorlar ham mamlakatimiz bo'ylab milliy kiyimlar atlas, adras kabilarni kiyishayaptilar. Bu esa o'z navbatida xalqimiz orasida milliylikni targ'ib qilishda va yoyilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Biz atlasning milliy kiyim sifatida qabul qilinishini O'zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy qadryatlarni tiklash jarayonida atlas milliy kiyim sifatida rasman tan olindi. U nafqat kiyim, balki o'zbek milliy madaniyatining bir timsoliga aylandi. Atlas matosi ko'p asrlar davomida hunarmandchilik va san'atning bir qismi sifatida qadrlangan. O'zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlarida bu mato milliy o'zlik va an'nlarni ifodalagan. Shunday qilib atlas o'zining nafisligi, tarixi va ramziy ma'nosi tufayli o'zbek milliy kiyimining ajralmas qismiga aylangan.[3:2] Sintetik tolalardan yasalgan atlaslarga ,asosan material sezgirligi tufayli afzallik beriladi. Poliestradan yasalgan atlaslar juda tez qiziydi. Ipak mato, shuningdek mato ishlab chiqaruvchilarga sintetik tolaga erishilgandan ko'ra boyroq rangdagi atlaslar yaratishga imkon beradi. Tarix atlas sintetik tolalar paydo bo'lishidan oldin asrlar davomida ipakdan qilinganligi sababli, Xitoy ming yillar davomida atlas ishlab chiqarishda monopoliyaga ega edi. 1300-yillarda Evropada ipak ishlab chiqarish boshlanadi. Respublikamizda atlas va adras targ'ibotini kuchaytirish, o'zbek milliy liboslariga mehr uyg'otish va ommalashtirish, zamonaviy kiyinishda o'zbekona sharm-hayo me'yorlarini targ'ib qilish, o'zbekona kiyinish madaniyatini yuksaltirish maqsadida "Xon atlas" festivali keng nishonlanmoqda. XX asr boshlarida bu yerda ko'plab adras to'quvchi atlas to'quvchi kosiblar



bo'lishgan. Adras 1920 yillargacha Marg'ilon, Samarqand, Buxoro, Xo'jand va boshqa joylarda to'qilib, O'rta O'siyo bozorlaridan tashqari Avg'oniston, Xitoy kabi qo'shni mamlakatlarda ham sotilgan. Demak milliy matolarimiz atlas va adras matolari qadimdan faqatgina qo'l ishi sifatida mashhur bo'lgan. Bugungi kunga kelib esa avtomatlashtirilgan mashinalarda yaratilmoqda. Lekin hozirda ham qo'l ishi bilan yaratilgan milliy matolarga talab yo'qori. Bundan tashqari milliy matolarimizdan adrasdan milliylik va zamonaviylikni uyg'unlashtirilgan holda ko'plab liboslar yaratilmoqda. [4:1,2]

Foydalilgan Adabiyotlar:

1. Donaboyeva Maftuna – “O'zbek milliy liboslari tarixi. O'rta osiyo urf-odatlarida taraqqiyotida tutgan o'rni”.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma'lumotlaridan.
3. Mirzayeva Shaxriniso – “O'zbek milliy etno-liboslari tarixiga bir nazar”.
4. Yuzboyeva Gulchehra – “Milliy liboslarimizdagi atlas namunalarini o'ziga xos uslublari”.